

**LOYIHAGA ASOSLANGAN TA'LIM (PBL)**

Tursunova Halima Boqijanovna

O'zbekiston Respublikasi IIV

Namangan akademik litseyi

ingliz tili fani o'qituvchisi

Abstrakt. Loyiha asosida o'qitish (*Project-Based Learning – PBL*) – bu o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashishga va muammolarni hal qilishga o'rgatuvchi zamonaviy ta'lim metodidir. Ushbu maqolada PBLning dolzarbligi, afzalliklari, imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Loyiha asosida o'qitish, innovatsion metodlar, faol ta'lim, mustaqil fikrlash,

Abstract. *Project-Based Learning (PBL) is a modern educational method that teaches students independent thinking, creative approaches and problem-solving skills. This article examines the relevance, advantages, and application possibilities of PBL*

Key words: *Project-Based Learning, innovative methods, active learning, independent thinking*

Bir paytlar ingliz tili xonasi deganda devorlariga ingliz yozuvchi va shoirlarining portretlari osilgan xona tushunilardi. O'quvchilarga ularning hayoti va ijodi haqidagi matn (ingliz tilida) yodlatilardi. Nima deyayotganlarini deyarli tushunmasalar-da, matnni qoyilmaqom qilib aytib berardilar. Darslar o'qituvchi yoki o'quvchining monologi tarzida o'tardi. O'sha davrning talabi shu edi-da.

Fan-texnika shiddat bilan rivojlanib borar ekan, u hayotimizning barcha sohalarida, jumladan, ta'limda ham tub o'zgarishlar yasash vaqti kelgani haqida bong ura boshladi. Buning uchun esa ta'limning eski “qog'oz va ruchka”, “doska va bor” usullaridan voz kechish kerakligi kun tartibining asosiy masalalaridan biriga aylandi. Chunki bu usulning mohiyati “o'qituvchi – ma'lumot beruvchi, o'quvchilar ma'lumot



oluvchi” konsepsiyasidan iborat edi. Ya’ni, o’qituvchi ta’lim jarayonining markaziy figurasi bo’lib, dars materiallarini darslikdagi ma’lumotlar asosida yaratar va taqdim etardi hamda hamma uchun bir xil topshiriq – mavzuni o’rganish berilardi. Ustozdan eshitganlarini sharillatib so’zma – so’z aytib berganlar a’lo baho olardilar, ayta olmaganlar esa past o’zlashtiruvchilar ro’yxatidan joy olardilar. Aslida bu, ta’bir joiz bo’lsa, kabutar yoki chumchuqdan burgutga o’xshab uchishni talab qilish emasmi? To’g’ri, har ikkovi ham qush, lekin burgutdan farqli o’laroq, ularga burgut kabi baland uchish qobiliyati berilmagan, xuddi burgutda kabutar va chumchuqdagi ayrim xususiyatlar bo’lmagani kabi. Xulosa shuki, har bir o’rganuvchidan iqtidoriga yarashasini talab qilish kerak. Ingliz tilida bu yondoshuv **“can do”** deb ataladi. Haqiqatdan ham, har bir o’rganuvchining zaif tomonlari bilan bir qatorda o’ziga xos kuchli tomonlari ham bor. O’qituvchining vazifasi kuchli tomonni aniqlash va uni rivojlantirishga ko’maklashish, zaif nuqtani esa kuchaytirishdir. Xo’sh, bu vazifani qanday uddalasa bo’ladi? Fikrimcha, dastavval o’zimiz, ustozlar o’zgarishimiz kerak. Zamonaviy ta’lim tizimi o’quvchilarning faolligini oshirish, ularni mustaqil fikrlash va ijodiy yondashishga o’rgatish kabi muhim vazifalarni oldinga qo’ymoqda. An’anaviy dars usullaridan farqli o’laroq, innovatsion metodlar asosida o’qitish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu metod o’quvchilarga bilimlarni mustaqil ravishda o’zlashtirish, amaliy mashg’ulotlar orqali tajriba orttirish va jamoaviy muammolarni hal qilish ko’nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Shunday ekan, faoliyatimizni yangi davr avlodining qiziqishlari, yangi davr talablari asosida tashkil etishimiz, 21- asr o’quvchisi qanday bo’lishi kerak degan savolga javob topishimiz va unda kerakli sifatlarni shakllantirishimiz maqsadga muvofiqdir. 21- asr o’quvchisi, yurtboshi aytganlaridek, quyidagi sifatlarga (4k) ega bo’lishi lozim:

***kritik fikrlash (critical thinking)**

***kommunikatsiya (communication)**

***kollaboratsiya(collaboration)**

*** kreativlik (creativity)**

Ushbu maqsadlarga faqatgina yangicha ish uslubi yordamida erishish mumkin. Bugungi kunda kompyuter texnologiyasi rivojlanishi bilan ta’limga “texnologiya”,



“zamonaviy texnologiya”, “innovatsion texnologiya” tushunchalari kirib keldi vat a;lim sifatini belgilovchi asosiy mezonlarga aylanib ulgurdi. An’anaviy ta’limdan farqli ravishda yangi ta’lim texnologiyasi markazida o’rganuvchi turadi. Mazkur texnologiya tanqidiy fikrlash, yaratuvchanlik va ijodkorlik, mustaqil o’rganish, o’ziga ishonch kabi ko’nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Garchi loyihani individual yoki jamoaviy tarzda tayyorlash mumkin bo’lsa-da, ushbu texnologiya ko’proq kichik guruhlarda ishlaganda samarali natija beradi deb o’ylayman. Chunki o’quvchilar bir jamoa bo’lib bir topshiriq ustida ishlaydilar. Topshiriqni bajarish jarayonida o’quvchilarning nafaqat ilmiy salohiyatlarini, balki ularning dunyoqarashi, muammolarga yondashish, hamkorlikda ishlay olish, o’z fikrini bayon eta olish, qarshiliklar bo’lsa, fikrini himoya qila olish, o’zgalarni tinglay bilish, eshitganlarini tahlil qilish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini kashf etish imkonini beradi. Guruhlar ishini nazorat qilayotgan o’qituvchi kim loyiha uchun g’oya beryapti, kim g’oyani rivojlantiryapti, fikrlarni yozib borayitgan kim, kim rasm chizyapti, loyihani kim taqdim etmoqchiligiga qarab o’quvchilarning individual qobiliyatlarini, kim nimaga qodir ekani va aksincha, qaysi ko’nikmalari yaxshi shakllanmaganini aniqlay oladi. Ayniqsa, bu usulni chet tili, jumladan, ingliz tili darslariga tadbiiq etish o’quvchilarning qiziqishini oshiradi, chet tilida gapirishdan, to’g’rirog’i xato qilishdan qo’rqish, tortinish kabi to’siqlardan xalos bo’lishga yordam beradi.

Loyiha o’zi nima? Loyiha o’quvchilarning o’z g’oyalarini o’zlari yaratgan qulay shaklda – posterlar, referatlar, rasmlar, esselar, bukletlar ... yordamida og’zaki yoki yozma ifoda etish imkoniyatidir. Loyihani amalga oshirish jarayonida o’quvchilar quyidagi bosqichlarni bosib o’tadilar:

- 1. Muammoni aniqlash;**
- 2. Muammoga imkon qadar to’g’ri yechim topish usulini o’ylab topish;**
- 3. Yechim prototipining dizaynini yaratish va rivojlantirish;**
- 4. Mutaxassislar yoki tengdoshlari tomonidan berilgan mulohazalarga asoslanib, yechimni qayta ko’rib chiqish.**

O’quvchilar ushbu to’rt bosqichni loyiha maqsadi va ko’lamidan kelib chiqib, butun kurs davomida yoki birgina dars jarayonida amalga yakunlashlari mumkin.



Loyihadan ko'zlangan maqsadga erishish uchun ularni murakkablashtirmaslik maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida ta'kidlanganidek, loyihalarni turli shakllarda amalga oshirish mumkin. Men ko'proq posterlarni afzal ko'raman. Fikrimcha, referat, rasm yoki esselarda plagiarism, ya'ni tayyor manbadan ko'chirib olish ehtimoli yuqori bo'ladi. Poster tayyorlashda esa o'quvchilar o'z tasavvurlariga tayanadilar. O'zlari dizayn tanlaydilar, o'zlari qo'ldan kelganicha rasmlar chizadilar, matn yaratadilar. Yana bir muhim jihati, posterlarni uy vazifasi sifatida, sinfda esa mustaqil ish sifatida bersa ham bo'ladi. Ayniqsa, mavzuni mustahkamlash bosqichida qo'llash dars mavzusining o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganini aniqlash imkonini beradi. Sinfda posterlar tayyorlash uchun doimo markerlar, rangli qalamlar, o'chirgich va albatta, qog'oz bo'lishi shart. Loyiha mavzusi o'qituvchi tomonidan o'tilgan dars mazmunidan kelib chiqib berilishi mumkin yoki o'quvchilar o'zlari xohlagan mavzuni tanlashlari ham mumkin. Loyiha texnologiyasini qo'llashda kichik guruhlar bilan ishlash qiziqarliroq va samaraliroq bo'ladi. Bu texnologiyadan o'z faoliyatimda ko'p foydalanaman va loyihadan loyihaga o'quvchilarning og'zaki nutqining o'sgani, o'zlariga bo'lgan ishonchning ortganini ko'raman. Masalan, akademik litseylar 1-bosqich o'quvchilari uchun mo'ljallangan **Prepare** darsligida **“Respecting the environment”** mavzusi bo'lib, mavzuga oid lug'at, matn va mashqlar ustida ishlangach, o'rganilganlarni mustahkamlash va baholash maqsadida o'quvchilarga **“Local ecosystem and health (Mahalliy ekosistema va salomatlik)”** mavzusida loyiha tayyorlash topshirig'i berildi. Dastavval, guruh 2 ta kichik guruhga ajratildi. Poster tayyorlash uchun vaqt belgilandi. Belgilangan vaqt davomida guruhning har bir a'zosi loyihaga qo'lidan kelganicha o'z hissasini qo'shdi. Natija esa tasavvur qilgandan ham ziyoda bo'ldi. Tasviriy san'at, biologiya, tibbiyot va ingliz tili fanlarining ajoyib uyg'unligiga guvoh bo'lindi. Eng hayratlanarlisi, guruhning har bir a'zosi o'zi yashab turgan joyining tabiati, ekologik muammolaridan xabardor ekanliklaridir. Har bir guruh o'z loyihasini taqdim etar ekan, qolgan guruhlariga nisbatan yaxshiroq javob berishga harakat qildilar va o'zlari sezmagan holda raqobatga kirishib ketdilar. Raqobat esa, ma'lumki, har qanday muvaffaqiyatning g'ildiragidir. Bundan tashqari,



loyiha tayyorlash o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalari, ijogkorlik, hamkorlik, muammoga birgalikda ijobiy yechim topish, bir-birining fikrini tinglash, o'zaro hurmat va ishonch kabi sifatlarning shakllanishiga turtki bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, chet tillarni o'qitishdan maqsad uni muloqot vositasi sifatida o'rganish ekan, loyihaga asoslangan ta'lim eng maqbul texnologiyalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. H.Hamidah. Project based learning, 2020
2. JW Thomas. A review of research on project based learning. 2000

Internet saytlari:

3. <https://www.bu.edu>
4. <https://www.pblworks.org>